

O`RTA ASRLAR DAVRIDA KISHILIK JAMIYATINING IJTIMOIY KAPITALI

Norqobilov Muzaffar Jumayevich

DXX ChQ "Yosh chegarachilar" HAL direktori Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada gumanizm g'oyalaring ildiz otishi adabiyot va san'at sohalari bilan cheklanib qolmagani, tez orada u buniyodkorlikka chorlovchi amaliy faoliyat sifatida ijtimoiy hayotning turli sohalarini ham qamrab ola boshlagani yozilgan. Ijtimoiy jarayonlar, fenomenlar aynan gumanizm g'oyalari pozitsiyasidan talqin va tahlil etilgani, bunday holat jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar xarakteriga ham ta'sir ko'rsatgani, ijtimoiy aloqalar xarakterining o'zgarishi esa o'z navbatida shaxslararo hamkorlik tamoyillarini yangilagani, u nafaqat o'zaro manfaatdorlik va erkinlik, balki gumanizm tamoyillariga ham tayangani takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'rta asrlar davri, ijtimoiy kapital evolyusiyasi, renessans davri, ijtimoiy guruh, gumanizm g'oyalari, ijtimoiy normalar.

Eramizning V asrida G'arbda, VII asrida esa Sharqda insoniyat tarixining eng uzoq bosqichini o'zida mujassam qilgan o'rta asrlar davri boshlandi. Bu davr mobaynida kishilik jamiyatining barcha sohalarida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy kapital tabiatiga ham ta'sir o'tkazdi, albatta. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy sohalardagi yangilanishlar ijtimoiy kapital asoslariga yangicha tus berdi. Masalan, o'rta asrlarning ilk bosqichida (V-IX asrlar) natural ishlab chiqarish ustuvor edi. Bu bosqichda davrning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlaridan biri bo'lgan feodallar o'z hukmi ostidagi hududda xavfsizlikni ta'minlash, soliqlarni toplash, hatto hududda istiqomat qilayotgan dehqonlarni sud qilish, boshqa feodallar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish uchun ham mas'ul edi. Bunday vaziyat shaxslararo hamkorlik ko'lamenti kengaytirdi, munosabatlarda turli manfaatlarni inobatga olish, kelishuvga amal qilish, va'daga vafo qilish kabi qoidalarni ijtimoiy normaga aylantirdi.

O'rta asrlarning ikkinchi (X-XV asrlar) bosqichida turli shaharlarda tovar-pul munosabatlarining qaror topishi ijtimoiy kapital tabiatini yanada o'zgartirdi. Tovar-pul munosabatlari turli kishilarning (aytaylik, sotuvchi va xaridor, xom ashyo yetkazib beruvchi va mahsulot ishlab chiqaruvchi) maqsadlarini muvofiqlashtirishni, muayyan kelishuvga kelishni taqozo qilardi. Bu zaruriyat shaxslararo hamkorlikni ushbu normalarga bo'ysundirdi.

Masalaning yana bir jihat shundan iboratki, o'sha davrda aksariyat hollarda har bir shahar o'z pul birligiga ega bo'lar, iqtisodiy munosabatlarda ana shu birlikdan foydalanishga intilardi. Bunday holat turli shaharlarda yashayotgan bir tabaqqa va sinf vakillarini umumiyl normalar asosida o'zaro hamkorlik qilishga undadi. Normalar qonunan belgilab qo'yilmagani sababli shaxslararo hamkorlikning asosiy manbai o'zaro ishonch bilan bog'liq bo'lib qoldi.

Ilk markazlashgan davlatlarning shakllanishi bilan turli shaharlardagi iqtisodiy munosabatlar uyg'unlashtirildi. Jumladan, turli ishlab chiqaruvchi kuchlar o'rtasidagi munosabatlar yagona qoidalarga bo'ysundirila boshlandi, shaharlarning pul birliklari unifikatsiya qilindi. Shu tariqa shaharlar miqyosida qaror topgan shaxslararo hamkorlik

shakllari, ijtimoiy norma va qadriyatlar umumjamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, tom ma'nodagi ijtimoiy kapitalga aylandi.

O'rta asrlar shaharlaridagi ijtimoiy turmush ham ijtimoiy kapital tabiatini chetlab o'tmadi. XV asrga kelib, shaharlardagi ijtimoiy turmush birmuncha farovonlashdi, turli ijtimoiy-maishiy xizmatlar, infrastrukturalar vujudga keldi. Bu omillar shahar aholisi uchun umumiyligi bo'lgan manfaatlarni shakllantirdi. Mazkur manfaatlarni himoya qilish va qondirish zaruriyati shaxslararo hamkorlikni kuchaytirishni, ularni umumiyligi ijtimoiy normalar asosida tashkil etishni taqozo qilardi.

Ijtimoiy kapitalning ma'naviy asoslariga keladigan bo'lsak, u o'rta asrlarning teotsentrik xarakteriga mutanosib ravishda o'zgardi. Xususan, Sharq jamiyatlarida ijtimoiy kapital islam g'oyalari va talablari asosida shakllandi. Islomda shaxslararo hamkorlikni yo'lga qo'yishda talab etiladigan qoidalari, normalar ko'plab uchraydi. Masalan, Qur'oni Karimning Anfol surasi 56-57 oyatlarida shunday deyiladi: "56. Ularning orasida siz bilan ahndlashib, so'ngra (Ollohdan) qo'rqmasdan har safar o'z ahd-paymonlarini buzaveradigan kimsalar bordir. 57. Bas, agar ularni jangda topsangiz, ularni halok qilish bilan ortlaridagi kimsalarni qo'rqitib qo'ying"^[1] Ko'rinish turibdiki, Islom shaxslararo hamkorlikda ahdu-paymonga qat'iy amal qilishni, uni buzganlarni qat'iy qoralashni talab etadi. Islom normalari hukmron bo'lgan bir sharoitda mazkur qoidalarning ijtimoiy kapital mazmuniga ta'siri tabiiy hol edi.

G'arb mamlakatlarida ijtimoiy kapital tabiatni xristian dini aqidalari ta'sirida o'zgardi. Ma'lumki, xristian dini keyinchalik umumiinsoniy ijtimoiy normalar darajasiga ko'tarilgan qator axloqiy qoidalarni tarannum etardi. Injilda mazkur normalar quyidagi tarzda e'tirof etiladi: "Zino qilma. Odam o'ldirma. O'g'rilik qilma. Soxta guvohlik berma. Birovning haqini yema. Ota-onangni hurmat qil"^[2]. O'rta asrlarda G'arb jamiyatidagi ijtimoiy aloqalarga diniy normalarning ta'siri kuchli bo'lgani bois ijtimoiy kapital ham mazkur talablarga moslasha bordi.

Shunday qilib, o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jamiyat tarkibidagi yangilanishlar bir tabaqa ichidagi shaxslararo hamkorlikning yangi shakllarini vujudga keltirdi. Ayni paytda ijtimoiy zaruriyat turli tabaqa vakillari o'rtasidagi hamkorlikning ilk ko'rinishlarini ham vujudga keltirdi. Bu hamkorlik shakllari din normalari va qadriyatlariga mutanosib ravishda amalga oshirilardi.

Ijtimoiy kapital evolyusiyasi Renessans davrida ham to'xtagini yo'q. Sharqda IX-XII asrlarda sodir bo'lgan Uyg'onishga, G'arbda XV-XVI asrlarda yuz bergan Renessansga turtki bergan omillar birmuncha o'xshash. Har ikkala sivilizatsiyada mazkur olamshumul davr eng avvalo markazlashgan davlatlarning batamom qaror topgani (bu jarayon o'rta asrlarning so'nggi davrlarida boshlangan bo'lsada, Renessans davriga kelib intiho topdi), savdo-sotiq va sayohatchilikning avj olgani, shaharlarning gurkirab rivojlangani, jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasining tubdan yangilangani, sifatan yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelgani, avvalgi davrlardagi teotsentrik g'oya va ta'limotlardan mohiyatan farq qiladigan g'oyalar, nazariyalar paydo bo'lgani sababli ro'y berdi^[3]. Sharqda, masalan, Arab xalifaligining rivojlangani, Buyuk ipak yo'li bo'y lab savdo aloqalarining yo'lga qo'yilishi, Bag'dod, Buxoro, Samarqand kabi o'nlab shaharlarning gurkirab rivojlanishi, tabiatshunoslik, falsafa, tarix, tibbiyot, geodeziya, mineralogiya, astrologiya, astronomiya, matematika, geografiya kabi fanlarning taraqqiy topishi, insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'ib qilinishi

Uyg'onish davrining asosiy xususiyatlari bo'ldi. G'arbda Ispaniya, Fransiya, Angliya, Italiya, Niderlandiya kabi mamlakatlarda markazlashgan davlatlarning yaratilishi, turli shaharlarning sanoat markazlariga aylanishi, o'zga mintaqalar bilan savdo aloqalarining jadallahushi, turkum tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-gumanitar ta'limotlarning yuzaga kelishi, jamiyatdagi tabaqalar va sinflar tarkibidagi o'zgarishlar Renessans davriga poydevor yaratdi.[4]

Jamiyat hayotining turli sohalarida sodir bo'lgan sifatiy o'zgarishlar mamlakatlardagi ijtimoiy muhitni keskin o'zgartirdi. Xususan, Renessans davri shaharlarda, bir tomonidan, feodal dunyoga xos bo'lgan aristokratlar, din peshvolari faoliyat ko'rsatardilar. Ularning ijtimoiy turmushga ta'siri kattaligicha qolmoqda edi. Ikkinci tomondan esa, avvalgi davrlarga xos bo'lmanan yangi ijtimoiy guruhlar paydo bo'la boshladi. Masalan, an'anaviy mehnat sub'ektlari bo'l mish dehqonlar va hunarmandlar safini biror bir mulkka ega bo'lmanan ishchilar guruhi to'ldirdi. Yirik mulk egalari, o'ziga to'q xonadonlarning badiiy asarlarga ehtiyoji va buyurtmasi tobora ortib borgani tufayli bu buyurtmalarni maxsus tayyorlash bilan mashg'ul bo'lgan alohida ijtimoiy guruh - ijodkorlar paydo bo'ldi. Ijtimoiy muhitdagi salmoqli o'zgarishlar jamiyat a'zolari o'rtasidagi aloqalar, shaxslararo hamkorlik xarakteriga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

O'rta asrlardagi shaxslararo hamkorlik tarkibida bir tabaqa vakillari o'rtasidagi aloqalar ustuvorlik qilgan bo'lsa, Renessans davrida bu o'ziga xoslik keskin o'zgardi. Turli ijtimoiy guruhlarning bir-biriga ehtiyojmandlik darajasi oshdi, bu hol jamiyatdagi aloqalarning nafaqat tarkibini, balki sifatini ham o'zgartirdi. Jumladan, shaxslararo hamkorlik o'zaro manfaatdorlik, erkinlik tamoyillariga asoslanadigan bo'ldi.

Renessans davri ijtimoiy kapitali nuqlu iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy muhitdagi yangilanishlar ta'sirida kechgani yo'q. Jamiyatdagi shaxslararo hamkorlik, ijtimoiy normalar va qadriyatlar tabiatiga shu davrdagi gumanizm g'oyalari rivoji ham iz qoldirdi. Gumanizm - "insonda insoniylik alomatlarining mujassamlashishi jarayonini ifodalovchi tushunchadir". Mazkur g'oyalari eng avvalo o'sha davr adabiyotida namoyon bo'ldi. Sharqda gumanizm g'oyalari Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy asarlarida tarannum etildi. G'arb mutafakkirlari ham o'z asarlarida gumanizmning turli jihatlarini ochib berdilar. "Xususan, italyan adabiy tilining asosi hisoblangan Dantening "Ilohiy komediysi", uning mashhur falsafiy asari "Bazm" va eng muhim siyosiy traktati "Monarxiya" asarlari italyancha gumanizm g'oyalaring shakllanishida qudratli manba vazifasini bajardi".[5]

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, gumanizm g'oyalaring ildiz otishi adabiyot va san'at sohalari bilan cheklanib qolgani yo'q. Tez orada u bunyodkorlikka chorlovchi amaliy faoliyat sifatida ijtimoiy hayotning turli sohalarini ham qamrab ola boshladi. Ijtimoiy jarayonlar, fenomenlar aynan gumanizm g'oyalari pozitsiyasidan talqin va tahlil etiladigan bo'ldi. Bunday holat jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar xarakteriga ham ta'sir ko'rsatdi. Ijtimoiy aloqalar xarakterining o'zgarishi esa o'z navbatida shaxslararo hamkorlik tamoyillarini yangiladi. U nafaqat o'zaro manfaatdorlik va erkinlik, balki gumanizm tamoyillariga ham tayanadigan bo'ldi. Jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy normalar va qadriyatlarning ham mazmuni gumanizm g'oyalariaga asoslanadigan bo'ldi

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Куръони Карим. Анфол сураси.- Тошкент: Чўлпон, 1992. - Б.150.
2. Муқаддас Китоб. -Тошкент: Муқаддас Китобни таржима қилиш институти, 2020. - 10:17, 10:18, 10:19.
3. Маркарян К.В. Человеческий капитал в постиндустриальной экономике-Автореферат диссертации на соискание ученое степени доктора экономических наук. -Москва, 2005. -С.35.
4. Хажиева И.А. Инсон ва инсонпарварлик мутафаккирларимиз талқинида //Образование и воспитание. Спесвыпуск, 2018, - №3.1. -Б.13.
5. Повстин В.А. Исследование соотциального капитала в хабаровском муниципальном сообществе// [хттпс:// сайберленинка. ру/артиcle/н/исследование-соотциального-капитала-в-хабаровском-муниципальном-сообществе/виewer](https://cyberleninka.ru/article/n/исследование-соотциального-капитала-в-хабаровском-муниципальном-сообществе)